

EMERGING PUNCTUATION TRENDS IN MODERN COMMUNICATION TOOLS AND THEIR IMPACT ON UZBEK PUNCTUATION.

Doliyeva Nigina To'ychi qizi
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich talabasi
niginadoliyeva@gmail.com

Abstract

This article analyzes the emerging punctuation trends in modern communication tools and their impact on the Uzbek punctuation system. It examines the phenomena of minimalism and maximalism in the use of punctuation marks across social media, messaging applications, and digital platforms, as well as the growing role of emojis and special symbols in expressing emotional and communicative intent. Based on the views of Uzbek and international linguists, the study highlights the transformation of punctuation in contemporary written communication and its influence on language culture and writing standards.

Key words: *Punctuation, modern communication, correct use of punctuation marks.*

РАЗВИВАЮЩИЕСЯ ПУНКТУАЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВАХ КОММУНИКАЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УЗБЕКСКУЮ ПУНКТУАЦИЮ.

Аннотация

В данной статье анализируются новые пунктуационные тенденции, формирующиеся в современных средствах коммуникации, и их влияние на систему узбекской пунктуации. Рассматриваются явления минимализма и максимализма в использовании знаков препинания в социальных сетях, мессенджерах и цифровых платформах, а также роль эмодзи и специальных символов в выражении эмоциональности и коммуникативного намерения. На основе взглядов узбекских и зарубежных лингвистов раскрываются изменения в современной письменной речи и их влияние на культуру языка и нормы письма.

Ключевые слова: *Пунктуация, современная коммуникация, правильное использование знаков препинания.*

ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDA RIVOJLANAYOTGAN PUNKTUATSION AN'ANALAR VA ULARNING O'ZBEK PUNKTUATSIYASIGA TA'SIRI .

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy kommunikatsiya vositalarida shakllanayotgan yangi punktuatsion an'analar va ularning o'zbek punktuatsiya tizimiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli platformalarda tinish belgilarining qo'llanishida kuzatilayotgan minimalizm va maksimalizm hodisalari, shuningdek, emojilar va maxsus belgilar orqali ifodalanayotgan ekspressivlik masalalari yoritiladi. Tadqiqotda o'zbek va jahon tilshunoslarining qarashlari asosida zamonaviy yozma nutqda punktuatsiyaning o'zgarish tendensiyalari ochib berilgan hamda uning til madaniyatiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar : *Puntuatsiya, zamonaviy kommunikatsiya, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash .*

Kirish . Bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylangan -zamonaviy kommunikatsiya vositalari -ijtimoiy tarmoqlar, matnli xabarlar, online platformalar va boshqa turdagi raqamli muloqot tizimlari, nafaqat aloqa madaniyatimizni balki, tilimizning grammatik va punktuatsion ko'rinishini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlarda yozuv grafik jihatdan ixchamlikni talab etadi. Ayni paytda , dunyoning taraqqiy etgan yozuvlarida tinish belgilarini qo'llashda ham ixchamlikka intilish, zarur bo'lgan holatlarda qisqartirilgan so'zlardan, bir xil vazifali ayrim tinish belgilarni tejash yoki kompyuter klaviyaturasi imkoniyatlaridan foydalangan holatda boshqa belgilardan foydalanish doimiy holat bo'lib qolmoqda . Puntuatsiya – yozma nutqda fikrni aniq, mantiqan izchil va ifodali yetkazish vositasi bo'lishi bilan birga, zamonaviy muloqotda muallif hissiyotini, urg'usini, munosabatini ham ifodalovchi kuchli semiotik tizimga aylanmoqda. Bu jarayonda tinish belgilarining minimalistik yoki maksimalistik shakllarda qo'llanishi, noto'g'ri joylashuvi, ortiqcha takrorlanishi va hatto yangicha belgilarning muomala vositasiga aylanishi kuzatilmogda. Bu jarayon o'zbek tiliga ham bevosita ta'sir etyapti . Badiiy ifoda shakllarining kengayishi fonida an'anaviy punktuatsion me'yorlarga muayyan darajada xalaqit berayotgan hodisalar vujudga kelmoqda. Muayyan tilda shakllangan bu an'ana tabiiy ravishda o'zaro munosabatda bo'lgan boshqa tillar yozuviga ham kirib boradi. Ushbu jarayonda tarjima amaliyoti muhim rol o'ynaydi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili : Puntuatsiya – bu tilshunoslikning murakkab va dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanib, bu yo'nalishda ko'plab o'zbek va jahon tilshunoslarining tadqiqotlari asosiy va nazariy manbalar qatoriga kiradi. Masalan, M.Qori - Niyoziy, A.Mamajonov, M.Tohirova, G'.Rahim, D.Crystal, Nikitina, V.N.Churkin, A.Baranova va I.S.Dedyulina kabi tilshunoslardir . Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasini ikki yo'nalishda o'rganish kerak deb jahon tilshunoslaridan biri D.Crystal ta'kidlab o'tgan. Unga

ko‘ra birinchisi , minimalizm – bu yozma nutqda faqat zarur bo‘lgan tinish belgilaridan foydalanish, ya‘ni o‘quvchining diqqatini ortiqcha narsalarga qaratmaslik maqsadida tinish belgilaridan foydalanishni qisqartirish. Ikkinchi yo‘nalish esa, maksimalizatsiya – muayyan tinish belgisidan ketma-ket, bir necha marotaba takror foydalanish . Misol uchun, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda so‘roq, nuqta va undov belgilarinig faolligi oshib boryapti . Bu nuqtayi nazar D.Crystalning “ Txtng: The Gr8 Db8” kitobida keltirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosi M.Tohirovanning “Punktuatsiya va nutq madaniyati” asarida ham tinish belgilarining mantiqiy yuklamasi, ularning gapdagi vazifasi va o‘quvchiga ta‘siri keng yoritilgan . O‘zbek tilshunosligida bu kabi tadqiqotlar sekin-sekin shakllanib kelmoqda . Shu sababli, hozircha zamonaviy kommunikatsiyadagi punktuatsion o‘zgarishlar keng qamrovda ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rilgani yo‘q. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda faolligi oshayotgan tinish belgilari; <<?>>, <<!>>, <<. >> bu belgilarni hatto kommunikantlarning kamdan-kam holatlarda ulardan yolg‘iz foydalanish, asosan, kompleks holatda qo‘llash <<????????????>>, <<!!!!!!!!!!!!!!!!>>, <<.....>> kuzatilyapti . Undov belgilarining sonining ko‘pligi , inson hissiyotini, hayratini yozuvda ifodalash istagida qo‘llanilsa, so‘roq belgilarining soni bilan esa, berilayotgan savolning qanchalik muhimligi va unga tezroq javob olish istagida qo‘llaniladi . Masalan, Qayerdasan ?????????? Bormisan????????? Nihoyat, orzuyim ushaldi !!!!! Bu rostmi !!!!!

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek yozma nutqida so‘zlar o‘rniga tinish belgilari yoki turli xil emoji va maxsus belgilardan foydalanish faolligi oshgan . Masalan : “Sizning bu ishingiz 😊” – bu yerda uch nuqta va emoji fikrni kinoyali tarzda tugatadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi o‘zbek yozuvchilarining postlari, izohlari va bloglari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tinish belgilarining o‘rnini va rolini buzadigan yozishmalarda “ekspressivlik” muhim o‘rin egallaydi . Masalan; Nuqtaning o‘rnida emoji ishlatilishi: “Bugun juda zo‘r kun 😊”

Undov belgisining o‘rnida ko‘p harf bilan kuchaytirish: “Yaxshiiiiiii!!!”

Bu holatlar tilshunoslikda noyorliq (devianlik) deb ataladi — ya‘ni mavjud qoidalar buzilgan bo‘lsa-da, ular orqali muayyan kommunikativ maqsadga erishiladi. Bunday hodisalar matnshunoslik va semiotika nuqtayi nazaridan alohida tahlilni talab qiladi. D.Crystal esa bugungi davrni “internet davri va kuchsizlangan punktuatsiya davri” deb ataydi. U ayni paytdagi matnlarda ishlatiladigan tinish belgilarning 90 % vergul yoki nuqtaga to‘g‘ri kelishini, aksariyat tinish belgilarining bajaradigan funksiyasi faqat nuqta va vergul zimmasiga yuklanib qolayotgani, ayrim tinish belgilari, masalan, nuqtali vergul deyarli qo‘llanmayotganini, Amerika ingliz tilisiga qaraganda britancha variantda juda kam uchratish mumkinligini ta‘kidlaydi. Umuman, boshqa olimlar ham, masalan, N.N.Goncharova XXI asrga kelib nuqtali vergulning ko‘p vazifalarini ikki nuqta egallab borayotganiga urg‘u beradi..

Tadqiqot metodologiyasi : Yuqorida aytilganidek, tinish belgilari milliy til grafikasi (yozuvi)ning tarkibiy qismi hisoblanib, o'qitish ishlari, savodxonlikni oshirish va nutq madaniyatini egallashda alifboni o'rganish qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, punktutasiyani bilish ham shunchalik ijtimoiy-amaliy va nazariy qiymatga ega . Tinish belgilari rivojlanishining so'nggi bosqichida murakkab gaplarda qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta va boshqa belgilarni qo'llash masalasi ko'proq estetik talablarga bog'liq bo'lib qoldi . Ya'ni, bu belgilar matnning chiroyli va didli ko'rinishiga ta'sir qiladigan holatlar paydo bo'la boshladi. Qoidaga ko'ra, har qanday gapdan so'ng uning ma'nosiga qarab tegishli tinish belgisi qo'yiladi . Sarlavha esa matnning alohida qismi bo'lib, u ko'pincha atov gap shaklida bo'ladi . Ba'zan u darak, so'roq, buyruq yoki his-hayajon gap tarzida ham kelishi mumkin. Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega . Punktutsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubi ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o'quv qo'llanmalarida tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy-grammatik, uslubi va differentsiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi ta'kidlanadi. Bunda mantiqiy-grammatik tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to'g'ri ifodalashga qaratilgan bo'lsa, differentsiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining qo'sh holda qo'llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo'lganda, ulardan foydalanish yo'llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo'llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to'g'ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi bo'lmaydi. Zarurat tug'ilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin.

Xulosa va takliflar : Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kommunikatsiya vositalari, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli muloqot platformalari punktuatsion me'yorlarning o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda yozma nutqda ixchamlik, tezkorlik va ekspressivlik asosiy omillardan biriga aylanganligi sababli tinish belgilarining an'anaviy qo'llanishida ham muayyan transformatsiyalar yuz bermoqda. Xususan, nuqta, undov va

so‘roq belgilarining ketma-ket qo‘llanishi, emojilar orqali hissiyotni ifodalash, ayrim tinish belgilarining tushirib qoldirilishi yoki boshqa grafik vositalar bilan almashtirilishi zamonaviy yozma kommunikatsiyaning xarakterli jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu jarayon o‘zbek punktuatsiyasiga ham bevosita ta’sir etib, yozma nutqning uslubiy va ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda adabiy til me’yorlarining buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, yoshlar nutqida internet uslubining keng tarqalishi natijasida punktuatsion savodxonlikning pasayishi, rasmiy va ilmiy matnlarda ham norasmiy yozuv elementlarining uchrashi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy kommunikatsiya punktuatsiyaning yangi semiotik vazifalarini ham yuzaga chiqardi. Endilikda tinish belgilarining vazifasi faqat grammatik munosabatlarni ifodalash bilan cheklanmay, balki muallifning hissiy holati, munosabati va kommunikativ maqsadini ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlar til rivojiga salbiy emas, balki murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Ya’ni, bir tomondan punktuatsion me’yorlarning soddalashuvi va ayrim belgilar funksiyasining torayishi kuzatilsa, ikkinchi tomondan yangi grafik-ifodaviy vositalar shakllanmoqda. Bu esa punktuatsiyani zamonaviy kommunikativ ehtiyojlar asosida qayta tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. O‘zbek tilshunosligida internet punktuatsiyasi va raqamli yozuv madaniyatini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida chuqur tadqiq etish lozim.
2. Ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llanayotgan punktuatsion hodisalarni lingvistik, semiotik va psixologik jihatdan o‘rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni ko‘paytirish kerak.
3. Ta’lim tizimida, ayniqsa maktab va oliy ta’lim bosqichlarida, zamonaviy yozma kommunikatsiya madaniyati bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.
4. O‘zbek punktuatsiyasining zamonaviy elektron yozuvdagi holatini aks ettiruvchi yangi uslubiy qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.
5. Tarjima amaliyotida chet tillar punktuatsion an‘analarining o‘zbek tiliga noo‘rin ko‘chib o‘tishini nazorat qilish va adabiy me’yorlarni saqlashga e’tibor qaratish kerak.

Umuman olganda, punktuatsiya til madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, zamonaviy kommunikatsiya jarayonlarida uning vazifasi yanada kengaymoqda. Shunday ekan, o‘zbek punktuatsiyasining rivojlanish tendensiyalarini zamon talablari asosida ilmiy tahlil qilish til taraqqiyoti va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Txtng: The Gr8 Db8 / David Crystal. Txtng: The Gr8 Db8. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – B. 15–37.
2. Language and the Internet / David Crystal. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – B. 67–89.
3. Tohirova M.. Punktuatsiya va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – B. 22–41.
4. Mamajonov A.. Hozirgi o‘zbek adabiy tili punktuatsiyasi. – Toshkent, 2002. – B. 18–34.
5. Qori-Niyoziy M.. O‘zbek tili grammatikasi va punktuatsiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1961. – B. 45–53.
6. Rahim G’.. O‘zbek tilida tinish belgilari tizimi. – Toshkent, 1998. – B. 27–39.
7. Goncharova N.N.. “Punktuatsion o‘zgarishlar va zamonaviy yozuv tendensiyalari” // Filologiya masalalari. – 2018. – B. 55–61.
8. Churkin V.N.. Sovremennaya punktuatsiya I internet-kommunikatsiya. – Moskva, 2017. – B. 71–94.
9. Baranova A., Dedyulina I.S.. “Internet tilida punktuatsion minimalizm va maksimalizm” // Lingvisticheskiye issledovaniya. – 2019. – B. 33–47.
10. To‘rayeva Dilbar Meyliyevna. Punktuatsiya (o‘zbek, ingliz va rus tili materiallari misolida). – Toshkent, 2025. – B. 84–85.
11. To‘rayeva Dilbar Meyliyevna. Umumiy va xususiy punktuatsion me‘yorlar hamda ularning mantiqiy-grammatik asoslari (ingliz, rus, o‘zbek tili materiallari misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Termiz, 2025. – B. 8–19.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O‘zbek tilining imlo qoidalari. – Toshkent, 2021. – B. 114–128.
13. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 201–219.
14. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002. – B. 97–101.
15. Bahriddinova Bashorat. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent, 2015. – B. 12–24.